# O‘QUV DASTUR PASPORTI

O‘quv Markazning Markaziy tashkiliy uslubiy kengashda 2024 yil 20 iyundagi 13-sonli bayonnomasi, Sog‘liqni saqlash vazirligi xuzuridagi uzluksiz tibbiy-farmasevtik ta’limni muvofiqlashtiruvchi kengashda tasdiqlangan 2024 yil 6 iyuldagi 1 –sonli bayonnomasi

*Qayd raqami: UMO -7-2024* *Amal qilish muddati 2029 yilgacha*

| | |
|---|---|
| **Ta’lim muassasasi nomi** | Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi |
| **Kafedra bo‘lim** | Oliy ma’lumotli tibbiyot hamshiralari |
| **O‘quv dastur nomi** | ***“ Akusherlik ishi”*** |
| **O‘qish turi** | Umumiy malaka oshirish |
| **O‘quv dastur mualliflari** | Salixodjaeva R.K., Urunova D.T., Tojiboeva G.Sh., Alimova F.Z. |
| **Siklning umumiy soati** | 144 kredit |

**Dars o‘tuvchi pedagoglar**

| | | | |
|---|---|---|---|
|  |  |  |  |
| R.K.Salixodjaeva<br>rafedra mudiri, t.f.n., dotsent | Urunova D.T<br>Kafedra assistenti | F.Z. Alimova<br>rafedra katta o‘qituvchisi | G.Sh.Tojiboeva<br>rafedra assistenti |

| | |
|---|---|
| **Maqsad** | Oliy ma’lumotli, bosh va katta akusherlarning “Reproduktiv salomatlik va akusherlik ishi” bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarini chuqurlashtirish va yangilash asosida, ularda o‘smirlar,fertil yoshdagi ayollarni reproduktiv salomatligini saqlash,homiladorlik davrida antenatal kuzatuv va tibbiy yordam ko‘rsatish,tug‘ruq va tug‘ruqdan keyingi parvarishni tashkil qilish,yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni parvarish qilish,ginekologik kasalliklarda bemorlarni parvarish qilish qobiliyatini kuchaytirish, xalqaro kasalliklar tasnifiga mos keladigan kasalliklarning nozologik shakllari, ambulator va statsionar sharoitida kasalliklarni tashxislash va davolash, bemor xayotiga havf soluvchi xolatlarda shoshilinch yordam ko‘rsatish, profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini chuqurlashtirish va yangilash.Shu bilan bir qatorda ularga akusherlik ishining mohiyati, uning sog‘liqni saqlash tizimidagi o‘ziga xosligi, normativ- xuquqiy hujjatlar bilan ishlash, kasbiy majburiyatlarni amalga oshirishda asosiy iqtisodiy |

| | |
|---|---|
| | va huquqiy bilimlarini ish jarayonida qo‘llash, aholiga sifatli akusherlik yordamini ko‘rsatish, profilaktika ishlarini yanada takomillashtirish, aholi reproduktiv salomatligini baholashda son va sifat ko‘rsatkichlaridan foydalangan holda ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. |
| **Siklga taklif qilingan mutaxasisslar - kontingenti** | Oliy hamshiralik ishi bakalavrlari va magistrlari, o‘rta tibbiy ma’lumotga ega bo‘lgan statsionar, ambulatoriya, sanatoriya-profilaktoriya va boshqa tibbiy Davlat va nodavlat muassasalari oliy ma’lumotli, bosh va katta akusherlari uchun mo‘ljallangan |
| **Dastur vazifalari** | • zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko‘nikmalarini yangilash va mukammallashtirish;<br>• etika va deontologiyaning zamonaviy jixatlari;<br>• akusherlarni isbotlangan tibbiyot asoslarini takomillashtirish va uni amaliyotga tadbiq qilish;<br>• aholi o‘rtasida to‘g‘ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash, o‘sib kelayotgan avlodni sog‘lomlashtirish tadbirlarini yangilash;<br>• aholi o‘rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, ko‘p tarqalgan kasalliklarni oldini olish, dispanser kuzatuvini olib borishni tashkillashtirishni takomillashtirish;<br>• hamshiralik jarayoni orqali tibbiyot hamshirasi amaliyot standartlarini, hamshiraning kasallik tarixi va hamshiralik tashxisi, shuningdek hamshiralik parvarishini amalga oshirish ko‘nikmasini rivojlantirish;<br>• homilador ayollarni ratsional ovqatlanish, ona sutining ahamiyati, sog‘lom va kasal chaqaloqlarni parvarishlash borasidagi bilim va ko‘nikmalarini yangilash;<br>• ayollar jinsiy a’zolarining kasalliklarini sabablari, patogenezi, tashxislash va davolash borasidagi bilim va ko‘nikmalarini yangilash;<br>• ayollarni zamonaviy laborator va instrumental tekshiruvlar o‘tkazish uchun tayyorlash ko‘nikmalarini mukammallashtirish;<br>• ayol jinsiy a’zolari havfli va havfsiz o‘sma kasalliklarni oldini olish, dispanser kuzatuvini olib borishni takomillashtirish;<br>• hamshiralik ishi sohasida ilmiy-amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish, ma’lumotlar bilan mustaqil ishlash ko‘nikmasini takomillashtirish;<br>• seminar va konferensiyalarda qatnashish uchun, olib borilgan ilmiy izlanishlar yuzasidan tezis, maqola, hisobot va ma’ruzalar tayyorlash qobiliyatini rivojlantirish;<br>favqulotda vaziyatlar, kechiktirib bo‘lmaydigan holatlarni tahlil qila olish va kechiktirib bo‘lmaydigan yordamni ko‘rsatish qobiliyatini yangilash |

| | |
|---|---|
| **Modullar** | Modul: Ma'naviyat va ma'rifat.<br>Modul: Tibbiyot valeologiyasi.<br>Modul: Sanitariya-epidemiologiya tartib va me'yorlari.<br>Modul: Tug‘ruq muassasalarida hamshiralar va akusherkalar ishini tashkil etish.<br>Modul: Reproduktiv salomatlik va akusherlik ishining xususiyatlari<br>Modul: Homiladorlik davrida antenatal kuzatuv va tibbiy yordam ko‘rsatish.<br>Modul: Tug‘ruqda qo‘llanilayotgan yangi texnologiyalar<br>Modul: Ayol jinsiy a'zolari kasalliklari va ularda hamshiralik parvarishining xususiyatlari<br>Modul: Yuqumli bo‘lmagan va yuqumli kasalliklarda hamshiralik parvarishiga zamonaviy yondashuvlar.<br>Modul: Xirurgiya, anesteziologiya va reanimatologiyada hamshiralik ishini tashkil etish.<br>Modul: Favqulotda vaziyatlar va shoshilinch xolatlarda hamshiralik yordami. |

**Amaliyot bazalari**

**Olmazor TTB Markaziy ko‘p tarmoqli poliklinika**



**Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazining ko‘p tarmoqli klinik shifoxonasi**



**Yunusobod TTB Markaziy ko‘p tarmoqli poliklinika**



**Respublika perinatal iarkazi**



| | |
|---|---|
| **Simulyatsion asbob/uskunalar** |   |